

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**YUSUPOV A'LO ANVAROVICH**

**PAXTA TOZALASH MASHINALARI KOLOSNIKLARINI SHARIK (DROB)  
OQIMLI ISHLOV BERISH JARAYONIDA MEXANIK MUSTAHKAMLASH  
ORQALI ISH QOBILIYATINI OSHIRISH**

**05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnik tizimlar”**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
technical sciences**

**Yusupov A‘lo Anvarovich**

Пахта тоzalash mashinalari kolosniklarini sharik (drob) oqimli ishlov berish jarayonida mexanik mustahkamlash orqali ish qobiliyatini oshirish..... 3

**Юсупов А‘ло Анварович**

Повышение работоспособности хлопкоперерабатывающих машин механическим упрочнением колосников в процессе дробеструйной обработки..... 23

**Yusupov A‘lo Anvarovich**

Increasing the operational efficiency of cotton processing machines by mechanical hardening of grate bars during shot blasting..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 48

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc30/30.11.2021.T.141.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOLALI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

**YUSUPOV A'LO ANVAROVICH**

**PAXTA TOZALASH MASHINALARI KOLOSNIKLARINI SHARIK (DROB)  
OQIMLI ISHLOV BERISH JARAYONIDA MEXANIK MUSTAHKAMLASH  
ORQALI ISH QOBILIYATINI OSHIRISH**

**05.02.03 – “Texnologik mashinalar. Robotlar, mexatronika va robototexnik tizimlar”**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent - 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T2665 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti" davlat muassasasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida <http://paxtasanoatilm.uz/> va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mo'minov Mansurbek Rahimovich**

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Rosulov Ro'zimurod Xasanovich**

texnika fanlari doktori, professor

**Ibragimov Farxod Xayrulloevich**

texnika fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.30/30.11.2021.T.141.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 27 avgust soat 12<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel.: (+99871) 207-04-03; faks: (+99871) 256-04-21; e-mail: info@paxtasanoatilm.uz (Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va etishtirish agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti binosi, 1-qavat, majlislar zali).

Dissertatsiya ishi bilan Tolali ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (ro'yhatdan o'tgan 45-son). 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika MFY O'zPITI ko'chasi, PSUYAITI. Tel.: (+99871) 207-04-03.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "18" avgust kuni tarqatildi.  
(2025 yil "18" avgust 45-raqamli reestr bayonnomasi).



**T.M.Quliyev**

Ilmiy daraja beruvchi  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

**R.K.Djamolov**

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, t.f.d., prof.

**R.Sh.Sulaymanov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash huzuridagi  
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon to‘qimachilik sanoatida tolali materiallar ishlab chiqarish bo‘yicha paxta tolasining ulushi 55-60%ni tashkil qiladi. Dunyo miqyosida aholi sonining jadal o‘shishi natijasida tabiiy mahsulotlarga, ayniqsa paxta tolasidan tayyorlangan to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlariga bo‘lgan talab uzluksiz ortib bormoqda va ish jarayonini sifatli amalga oshiradigan mashinalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Dunyo miqyosida paxta bo‘yicha xalqaro konsultativ qo‘mita (ICAC)ning ma‘lumotlariga ko‘ra “... jahon miqyosida har yili 23-24 mln tonna paxta tolasini ishlab chiqarilmoqda, uning istemoli esa 24-25 mln tonnani tashkil etishini”<sup>1</sup> hisobga olsak, to‘qimachilik va yengil sanoat mahsulotlarining yuqori ishlab chiqarish va sifatini ta‘minlash maqsadida paxta tozalash korxonalarida yangi uskunalar va texnologiyalarni joriy etish, paxta tozalash uskunalari takomillashtirish va sanoatda resurstejamkor ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash va modernizatsiya hamda rekonstruksiyaning amalga oshirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon tajribasida paxtani birlamchi qayta ishlash texnikasi va texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha kompleks va keng miqyosli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda tolani ajratish jin va linter mashinalari ishchi organlarining detallarini, xususan, ishchi kamera kolosnikli panjaralarining pardoqlash-mustahkamlash ishlov berishning yangi va progressiv usullarini ishlab chiqish ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu chora-tadbirlar ularning chidamliligini oshirish va ishqalanishga bardoshlilikini oshirish orqali texnologik tirqishning uzoq vaqt davomida saqlanishini ta‘minlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, ishlab chiqarish va paxtani qayta ishlash samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshligini ta‘minlash va ishlab chiqarishga mazkur sohaga oid zamonaviy fan va texnika yutuqlarini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan “...milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish”<sup>2</sup> bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda paxtani dastlabki ishlash uskunalari va texnologiyalarini takomillashtirish, paxta qayta ishlash mashinalari ishchi organlari detallarini sirtini plastik deformatsiyalash orqali pardoqlash-mustahkamlash, ularning ekspluatatsion sharoitlarda yuqori ish qobiliyatini ta‘minlash masalalari muhim hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-iyuldagi PQ-308-son “Paxta hosildorligini oshirish, paxta yetishtirishda

<sup>1</sup> International cotton advisory committee. Washington, From the Secretariat of the ICAC. <https://icac.org/emailsecretariat@icac.org>. September 1, 2019

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillardagi mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

ilm va innovatsiyalarni joriy qilishning qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 11-yanvardagi 11-son “Paxtasanoat ilmiy markazi” aksiyadorlik jamiyati faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

**Muammoning o‘rganganlik darajasi.** Zamonaviy mashinasozlik ishlab chiqarishida progressiv mexanik ishlov berish usullari va rejimlarini, shu jumladan pardoqlash-mustahkamlashni asoslash, texnologik mashinalarning ishchi organlari muhim qismlarining sirt qatlami sifatini ta‘minlash orqali ularga yuqori ekspluatatsion xususiyatlarni – ishqalanishga bardoshlilik, ekspluatatsiya – yemiruvchanlik va ishlash vaqtini oshirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu ilmiy yo‘nalish I.J.Armarego, J.Martin, H.Opitz, E.M.Trent, V.F.Bezyazychniy, B.A.Kravchenko, I.V.Kudryavtsev, Yu.G.Kabaldin, A.D.Makarov, A.A.Matalin, D.D.Papshev, S.V.Serensen, V.K.Starkov, A.M.Sulima, A.G.Suslov, M.A.Tamarkin, G.Fuchs, S.G.Xeyfets va boshqa xorijiy olim va mutaxassislarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Paxta qayta ishlash mashinalari ishchi organlari detallarini mustahkamlash usullari bilan yakuniy ishlov berishda zaruriy kerakli mustahkamlik va ekspluatatsiya xususiyatlarini ta‘minlashga qodir. Mazkur ilmiy yo‘nalishni takomillashtirish va rivojlantirishda akademik R.G.Maxkamov, M.G.Xamov, A.P.Rogov, A.M.Axmedov, I.G.Shin, V.V.Shiryayev, M.R.Mo‘minov, Z.A.Shodmonqulov va boshqalar o‘zining ulkan hissalarini qo‘shgan.

Biroq, paxta qayta ishlash mashinalarining ishonchliligi va ishlash qobiliyatini texnologik jihatdan yuza qatlami sifatini ta‘minlash orqali oshirishda erishilgan yutuqlarga qaramay, hozirgi vaqtda ishchi kameraning kolosnikli panjarasini sifatli tayyorlash muammoli masalalarini hal etishga yetarlicha e‘tibor berilmagan. Kolosnikli panjaraning holati diskli arralarning ishlash samaradorligiga bevosita ta‘sir qiladi, chunki ular ishchi kameradagi kolosnikli panjaralar orasidagi tirqishlardan o‘tib, diskli arralarning tishlari bilan chigitdan tolani erkin holatda ajratishini ta‘minlaydi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJning ALM-20230622233-sonli "Zamonaviy paxta tozalash korxonalari uchun innovasion avtomatlashtirilgan resurstejamkor mahalliy texnika va texnologiyalar kompleksini yaratish" (2024-2025) mavzusidagi amaliy loyiha bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** mikrosharchalar bilan ishlov berish jarayonida dinamik sirt qattiqligi oshirish hisobiga tola ajratuvchi mashinalar kolosniklarini ishlash qobiliyatini oshirish va ishchi yuzasi sifatini texnologik ta‘minlashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

sirt-plastik deformatsiyasining texnologik imkoniyatlarini asoslash va aniqlashning eng samarali usullaridan biri - tola ajratish mashinalarining ishchi kamerasidagi kamplastikli konstruksion materialdan tayyorlangan kulrang cho‘yan (ferrit va ferrit–perlit) kolosniklarini mikrosharchalar bilan zarbalash orqali mustahkamlash;

quyma cho‘yan qismlarining sirt qatlamining kuchlanish-deformatsiyalanish holatini va issiqlik shakllanishi tadqiqini amaliy bajarish, hosil bo‘ladigan yuklanish umumlashgan kuch shaklini tahliliy o‘rganishni amalga oshirish;

zarbali ishlov berish paytida deformatsion qattiqlashish chuqurligi va qayta ishlangan materialning Meyer bo‘yicha dinamik qattiqligi, fraksiyaning ta’sir chastotasi va normal ezilish kuchi o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish;

ishlov berilgan sirtning – qattiqligi, g‘adir-budurligi, deformatsiyalanish darajasi kabi sifat ko‘rsatkichlari yordamida sharcha bilan puxtalangan kolosnik sirt qatlamining fizik-mexanik holatini tajribaviy o‘rganish;

tola ajratish mashinalarining cho‘yan kolosnikli panjaralariga mikrosharchalar bilan ishlov berish orqali yuza qattiqligining samaradorligini isbotlash, tajriba-sanoat sinovlarni o‘tkazish va jin va linterlar uchun mikrosharchalar bilan ishlov berilgandan so‘ng qattiqligi yuqori bo‘lgan kolosniklarni ishlab chiqarishga joriy etish.

**Tadqiqotning ob’ekti** tola ajratish mashinalarining ishchi kamerasining cho‘yan kolosniklari hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida mikrosharchalarning metall yuzasiga urilganda kontaktlarning o‘zaro ta’sirining mexanika va termofizikasi, dinamik ta’sir paytida kuchlanish-deformatsiyalanish holati va mikrosharchalar zarbidan mustahkamlanganda sirt qatlamining sifat parametrlari olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy mexanika usullari, elastiklik va plastiklik nazariyasi, qattiq jismlarning mustahkamligi va mo‘rtligi gipotezalari va eksperimental mexanika usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

mashinasozlik amaliyotida birinchi marta temir-uglerodli qotishmalarning tarkibiy qismlarining qattiqlashish qobiliyatini asoslashga tayangan holda, cho‘yan detallarni mexanik sirt qattiqligini oshirish usuli ishlab chiqilgan.

materiallarning Meyer bo‘yicha dinamik qattiqligi va Brinellyu bo‘yicha esa statik qattiqligining o‘zaro aloqasini hisobga oladigan mikrosharchalar bilan ishlov berishdagi qattiqlashish chuqurligini aniqlash uchun analitik bog‘liqlik ishlab chiqilgan;

kam plastikli kulrang cho‘yanni mikrosharchalar bilan zarba berish orqali dinamik mustahkamlashda hosil bo‘ladigan kuchlanish holatini hisoblash modeli ishlab chiqildi;

mustahkamlangan jin va linter kolosniklarining chiziqli yeyilishi mustahkamlanmaganlarga nisbatan mos ravishda 1,7 va 2,2 baravar kam bo‘lgan, bu esa kolosniklar orasidagi tirqishlarning ruxsat etilgan chegarasidan ancha kichikligi aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nazariy-eksperimental tadqiqotlar kompleksi natijasida tola ajratuvchi mashinalarning (jin va linter) elastikligi past bo'lgan cho'yan kolosniklarining ishchi yuzasiga qisilgan havo oqimida va sanoatda seriyali ishlab chiqarilayotgan qum sepuvchi apparatlarda, shuningdek yordamchi sexlardagi zavodda tayyorlangan dastgohlarda mikrosharchalar bilan ishlov berishning samaradorligi isbotlangan;

ishlov berilayotgan materialning qattiqligi HB180 va zarb tezligi  $v=20...40$  m/s, mikrosharchalar diametri  $D=0,3...0,4$  mm bo'lganda yuza deformatsiyasining yetarli darajasi  $\Psi=0,231...0,33$  bo'lishini ta'minlovchi mikrosharchalar bilan ishlov berishning tartib va tavsiyalari ishlab chiqilgan;

ishlov berilmagan oddiy kolosniklarga nisbatan yemirilish darajasi 1,7 baravar kam bo'lishi ta'minlanib kolosniklararo oraliqning texnologik ko'rsatkichi uzoq vaqt saqlanib qolishiga erishildiki, bu narsa jinlash va linterlash jarayonlarida tolaning sifatli ajralishiga xizmat qilishi aniqlangan;

kolosniklar sirtini mikrosharchalar bilan zarbali ishlov berish orqali mexanik qattiqlashtirish detallarning yuza qatlamining qattiqligini oshirishni ta'minlaydi va termik ishlov berishsiz va ortiqcha xarajatlarsiz detallarning chidamliligini oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotlar mikrosharchalar bilan mustahkamlash orqali ishlov berishda metall yuzasiga urilayotgan mikrosharchalarning o'zaro kontakt ta'sirini yoritish uchun fizik va matematik modellarning asoslangan tanlovi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning natijalarining bir-biriga mos kelishi, tajriba-sanoat sinovlarining ijobiy natijalari jin va linter ishchi kameralari kolosniklariga mikrosharchalar bilan ishlov berish jarayonida sirti qattiqlashtirilgandan keyin ishlab chiqarishga joriy etilishi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tola ajratuvchi mashinalarning ishchi kamerasi kolosniklarini tayyorlashda qo'llaniladigan plastikligi past bo'lgan konstruksion material – SCh-15 markali kulrang cho'yan yuzasini mexanik qattiqlashtirish imkoniyati ko'rsatib berildi.

Bajarilgan tadqiqotning amaliy ahamiyati cho'yan kolosniklarning ishchi yuzasiga mikrosharchalar bilan zarbali ishlov berish natijasida kolosniklarning ishlash davri va buning natijasida ularning texnologik oraliqlarining uzoq vaqt saqlanib turishida ifodalangan samaradorlik asoslangan va o'z isbotini topganligidan iborat.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Jin va linterlar uchun kolosniklarga mikrosharchalar bilan zarbali ishlov berish bo'yicha tadqiqot ishini bajarishdan olingan ilmiy natijalar asosida:

ishchi yuzasi qattiqlashtirilgan cho'yan kolosniklar "Real Agro Cotton" UK ning Toshkent viloyati Yuqorichirchiq filialining jin-linter sexida tadqiqot etilgan ("O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 21-maydagi 03/25-1078 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tola ajratuvchi mashinalarning yuza qatlamiga mikrosharchalar bilan ishlov berilgan cho'yan kolosniklarning chidamliligi oshganligi hisobiga jin va linterlarda foydalanish ishonchliligi mos ravishda 1,7 va

2,2 baravarga oshirilgan va plastiklik xususiyati past bo'lgan konstruksion materialni mexanik qattiqlashtirish imkoni isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 17 ta ilmiy-texnik anjumanlarda, shu jumladan 13 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 5 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy ishlarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 3 ta xorijiy va 2 ta respublika maqolalari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 122 betni tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida ishning dolzarbligi va bajarilgan tadqiqotning zaruriyati, tadqiqotning maqsadi yoritilgan va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot ob'yekti va predmeti aniqlangan, respublikaning fan va texnologiyasini rivojlantirishning prioritet yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik elementlari keltirilgan, tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga tadbiiq etilishi, aprobatsiya va nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiya tarkibi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tola ajratuvchi mashinalar ishchi organlari detallarining ishlashini oshirishning texnologik usullarining tahlili**" da tola ajratuvchi mashinalar kolosniklariga bo'lgan texnologik talab va ularning ishlash kriteriyalari ko'rib chiqilgan. Cho'yan detallarning mikrotarkibiga bog'liq ravishda texnologik qattiqlashtirish bo'yicha adabiyotlar sharxi natijalari keltirilgan. Qisilgan havo oqimida mikrosharchalar bilan zarbali ishlov berish orqali plastikligi past bo'lgan cho'yan kolosniklar sirtini qattiqlashtirishning mexanik usuli ilmiy asoslandi. Uskunalarining ishlash muddati va foydalanish ishochliligini oshirish maqsadida texnologik mashinalar ishchi organlarining asosiy qismlarining sirt qatlamiga mikrosharchalar bilan zarbali ishlov berishda detallarning fizik-mexanik va sirt qatlamining sifat ko'rsatkichlari tavsiflovchi parametrlar ko'rib chiqildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Cho'yan kolosniklarni mikrosharchalar bilan dinamik sirt-plastik deformatsiyalashda o'zaro kontakt ta'siri mexanikasi**" tola ajratish mashinalari kolosniklarining ishchi yuzalarining mikrosharchalar bilan zarbali ishlov berish paytida kuchlanish-deformatsiyalanish holatini tahliliiy o'rganishga bag'ishlangan.

Mashinaning muhim qismlarining ishchi yuzalarini deformatsiya qilish uchun amalga oshirilgan zarbali ishlov berish  $D=0,3-0,4$  mm diametrli mikrosharchalarning turli xil urilish burchaklari bilan ishlov berilgan sirtga ko'p va bir vaqtning o'zida ta'siri bilan tavsiflanadi (1-rasm).


Deformatsiya jarayonining intensivligi turli xil ko'plab omillarga va birinchi navbatda, qayta ishlangan material va ishchi qismning fizik-mexanik xususiyatlariga, qismning kattaligi (massasi) va zarba tezligiga, urilish burchagiga, oqimning konsentratsiyasi va ishlov berish vaqtiga bog'liq.

Har bir fraksiya (mikrosharchalar) elastoplastik deformatsiyani bajarganligi sababli, ishchi organlarning konsentrlashgan oqimi bog‘lanish o‘zaro ta‘sirining polideformasion xarakterini yaratadi va shu bilan uning tahlilini murakkablashtiradi. Shuning uchun quyidagilarga asoslanib, zarba orqali mustahkamlikni ortishini shakllantirish kerak:



**1-rasm. Detalgacha  $l$  masofadan  $\alpha$  hujum burchagi ostida siqilgan  $p$  havo bosimi ostida yo‘naltirilgan mikrosharchalar oqimi bilan metall yuzalarga ishlov berish chizmasi**

Gers bog‘liqligidan (1) foydalanib, “po‘lat-po‘lat” va “po‘lat-cho‘yan” materiallarning elastik xususiyatlarini qiyosiy miqdoriy baholash fizik konstantalar – elastiklik moduli  $E_e$  va ko‘ndalang deformatsiya koeffitsiyenti  $\mu$  bo‘yicha berilgan. (Puasson koeffitsiyenti), ularni keltirilgan elastiklik moduli orqali bilan ifodalaydi



**2-rasm.  $D$  diametrlilik mikrosharchalar  $v$  tezlikda metall yuzasiga urilgandagi elastoplastik o‘zaro ta‘sirining chizmasi:  $d$  va  $h$  – mos ravishda plastik izning diametri va chuqurligi;  $h_H$  – hosil bo‘lgan izning chuqurligi**

1. Mikrosharchalarning konsentrlangan oqimidan birini tanlaymiz va mustahkamlangan qism yuzasiga to‘g‘ri burchak ostida ( $\delta=90^0$ ) o‘rtacha oqim tezligida uriladi deb hisoblamiz.

2. Kuch bilan ta‘sir qilish vaqtida deformatsiya jarayoni g‘adir-budurligi past, yuqori geometrik aniqlik va qattiqligi HRC62 sharsimon zarrachaning (fraksiyaning) bir bosqichli to‘qnashuvi bilan modellashtirilgan.

3. Qayta ishlangan material bir hil va izotrop deb taxmin qilinadi va deformatsiyalanadigan jism elastik yarim bo‘shliq (tekis sirt) bilan ifodalanadi, bu elastiklik va plastika nazariyasining asosiy tamoyillarini qo‘llash imkonini beradi. So‘nggi taxmin plastik iz (teshik) hajmi jism hajmidan sezilarli darajada kichik ( $d \ll D$ ) (2-rasm).

$$P = \frac{d^3}{3D \left( \frac{1-\mu_1^2}{E_1} + \frac{1-\mu_0^2}{E_0} \right)} \quad (1)$$

$$\frac{1}{E_{np}} = \frac{1-\mu_1^2}{E_1} + \frac{1-\mu_0^2}{E_0}$$

bu yerda,  $E_1$ ,  $\mu_1$  va  $E_0$ ,  $\mu_0$  – mos ravishda elastiklik moduli va indentor va bo‘lak materiallarning Puasson koeffitsiyenti;  $D$  – sharcha diametri, mm.

Hisob-kiotoblar bo‘yicha “po‘lat-cho‘yan” juftligi uchun eloastiklik moduli  $E_{np}=0,87898 \cdot 10^5$  N/mm<sup>2</sup>. “Po‘lat - po‘lat” juftligi uchun  $E_{np}=1,0994 \cdot 10^5$  N/mm<sup>2</sup>. Shunday qilib, birinchi juftlik uchun keltirilgan  $E_{np}$  elastiklik moduli  $E_{np}$  dan 0,8 ni elastiklik modulitashkil qiladi, ya‘ni  $E_{np}: E_{np}=0,8$ . Demak,  $D$  sharchaning o‘zgarimas

ko'rsatkichida bir xil  $d$  diametrli elastik iz shakllantirish uchun cho'yan materialning kontakt zonasidagi  $P_1$  kuch past bo'ladi va po'lat materialni ezishda  $0,8P_2$  kuch past bo'ladi va po'lat materialni ezishdani tashkil qiladi. Cho'yanning po'latga nisbatan elastiklik xususiyatlarining bunday kamayishi uning plastik xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatadi, qaysiki cho'yan tarkibidagi grafit – past mexanik zichlikka ega mikrouchastkalarining mavjudligiga bog'liq.

Mikrosharchalar bilan zarba berish orqali ishlov berishda deformatsiyalanish o'chog'ining asosiy parametrlari o'rganildi. M.M.Saverinning taniqli formulasi natijasida  $\Psi$  yuza deformatsiyalanish darajasini hisoblash uchun kontaktga kirishuvchi jismlarning mexanik xususiyatlarini hisobga olgandek ishlov berish tartibini ham inobatga oluvchi (3) tenglik olindi:

$$\psi = 1,14 \sqrt[4]{\frac{\rho \cdot v^2}{g \cdot HB}} \quad (2)$$

Bu yerda,  $\rho$ - zarra materialining zichligi, po'lat uchun  $\rho=7,85 \text{ g/sm}^3$ ;

$g$  – og'irlik kuchining tezlashishi,  $9,81 \text{ m/s}^2$  ga teng;


$v$  – zarba tezligi, m/s.

$HB$  – Brinell bo'yicha ishlov berilayotgan materialning qattiqligi.

(3) formulada dinamik qattiqlashish ko'rsatkichi 2 ga teng deb olingan va dinamik qattqlik statik qattqlik bilan metall va HB300 quymalari uchun adolatli bo'lgan  $H_d=1,6HB$  nisbati bilan bog'langan.

Yuza deformatsiyalanishi  $\Psi$  darajasini baholash kolosniklar tayyorlanadigan kulrang cho'yan HB 140...220 qattqlikka ega bo'lgan ferrit va ferrit-perlik tarkibga egaligi hisobga olinib bajarilgan. Cho'yanning po'latga nisbatan kam ifodalangan past plastik xususiyatlari sabab mikrosharchalarning tezligi pasaytirilgan va  $v=20...40 \text{ ,m/s}$  diapazoni ko'rsatkichlarida qabul qilingan.

$\Psi$  yuza deformatsiyalanish darajasining hisobiy ko'rsatkichlarini grafik ko'rinishi, ishlov berilayotgan materialining HB qattqligi va zarraning  $v$  urilish tezligiga bog'liq o'zgarishini aniqlash imkonini beradi (3-rasm).  $v$  urilish tezligining oshishi bilan  $\Psi$  yuza deformatsiyalanish darajasi nochiyiq bog'liqlikda zarbaning kinetik energiyasi oshganligi uchun ko'tariladi.  $v$  urilish tezligining 20 dan 40 m/s gacha ortishida  $\Psi$  yuza deformatsiyalanish darajasi HB220 bo'lganda 0,221 dan 0,313 gacha, ya'ni 42% ga ortadi.



**3-rasm.  $\Psi$  yuza deformatsiyalanish darajasining  $v$  zarba tezligiga bog'liqligi (a) turli qattqliklarda ( 1-HB140; 2-HB-180; 3-HB220 va ishlov berilayotgan materialning qattqligidan (b) zarbaning turli tezliklarida (1-  $v=20 \text{ m/s}$ ; 2-  $30 \text{ m/s}$ ; 3-  $40 \text{ m/s}$ )**

$\Psi$  yuza deformatsiyalanish darajasining o'zgarishiga ishlov berilayotgan materialning HB qattiqligi kam darajada ta'sir etadi. HB qattiqlikning 140 dan 220 gacha oshishida  $\Psi$  ko'rsatkichi o'rtacha 12 %ga kamayadi.

Negaki, yuza deformatsiyalanish darajasi  $d/D$  nisbatini ifodalagani uchun (2) tenglamaga binoan plastik iz radiusining  $a=d/2$  ifodasi quyidagicha yozish mumkin:

$$a = 1,14 R^4 \sqrt{\frac{\rho}{g} \cdot \frac{v^2}{HB}}, \text{ MM} \quad (3)$$


Bu erda  $R=D/2$  – zarra radiusi, mm.

Plastik izning radiusidan odatda tegishli statik kuchni hisoblash uchun foydalaniladi. Zarbali urish bilan ishlov berishda ko'p martali dinamik ta'sir natijasida plastik izning radiusi belgilangan ko'rsatkichgacha oshadi, so'ngra deyarli o'zgarmas bo'lib qoladi. Shuning uchun, (3) formulaga ko'p martali ta'sir ostida iz radiusini hisobga oluvchi  $\varphi$  koeffitsiyenti kiritildi


$$a = 1,14 \varphi R^4 \sqrt{\frac{\rho}{g} \cdot \frac{v^2}{HB}}, \text{ MM} \quad (3,a)$$

Bu yerda  $\varphi = 1,3 \dots 1,5$  – iz diametrining kattayish koeffitsiyenti.

3-rasmda plastik iz radiusining hisobiy ko'rsatkichlarining mikrosharchalarning  $R=0,15$  mm va  $0,2$  mm radiusda urilish tezligi va ishlov berilayotgan materialning HB qattiqligiga bog'liqligi keltirilgan.



**4-rasm. Plastik iz radiusi  $a$  ning zarba tezligi  $v$  ga bog'liqligi (a) har xil qattiqliklarda HB (1-140; 2-180; 3-220) va ishlov beriladigan materialning qattiqligiga bog'liqligi (b) har xil zarba tezliklarida (1-  $v=20$  m/s; 2-  $v=30$  m/s; 3-  $v=40$  m/s). Mikroshar radiusi  $R=0,15$  mm (a) va  $R=0,20$  mm (b).**



**5-rasm. Yarim cheksiz bo'shliq chegarasidagi normal konsentrlangan  $R$  kuch yuzaga keltiradigan kuchlanish holati uchun hisobiy chizma**

Plastikligi past bo'lgan materialdan yasalgan detallarni sirt qatlamini mikrosharchalar bilan ishlov berishda yuklanishni kuchlanish-deformatsiyalanish holati tadqiq qilindi. Hisobiy chizmada (4-rasm)  $z=0$  tekisligi jismning yarim cheksiz bo'shlig'ining chegarasi hisoblanadi va konsentrlangan siquvchi kuch  $R$  o'q  $Z$  bo'ylab yo'naltirilgan.

Mazkur holat uchun kuchlanish komponentlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi

$$\sigma_z = -\frac{3Pz^3}{2\pi l^5};$$

$$\sigma_r = -\frac{P}{2\pi} \left[ \frac{1-2\mu}{l(l+z)} - \frac{3zr^2}{l^5} \right]; \quad (4)$$

$$\sigma_\theta = -\frac{P}{2\pi} (1-2\mu) \left[ \frac{z}{l^3} - \frac{1}{l(l+z)} \right]; \quad \tau_{rz} = -\frac{3Pz^2r}{2\pi l^5}$$

bu yerda  $y_z, y_r, y_\theta$  – mos ravishda o‘q, radial va aylana normal kuchlanish.

Kuchlanganlik holatining tahlili odatda normal kuchlanish intensivligi  $\sigma_i^{\max}$  maksimal bo‘lgan parallel ishlov berilayotgan yuzalar qatlaminin nuqtalari uchun bajariladi. Chunki plastiklik nazariyasi bo‘yicha aynan kuchlanish intensivligi ishlov berilayotgan materialning hosil kuchiga ekvivalent deb qabul qilinadi. Z o‘qida joylashgan yuklash tekisligiga normal konsentrlangan R yuklanish harakatida konsentrlangan kuchlar harakati yo‘nalishiga mos keladi. Bunday holatda yuklash aksimetrik hisoblanadi va z o‘qida yotgan nuqtalar uchun kuchlanish komponentlari quyidagi formulalar bo‘yicha aniqlanadi:

$$\sigma_z = -\frac{P}{2\pi} \frac{3}{z^2}; \quad \sigma_x = \sigma_y = -\frac{P}{2\pi} \left( \frac{1-2\mu}{2z^2} \right) \quad (5)$$

Normal kuchlanishning ushbu uch komponenti (5) asosiy hisoblanadi, chunki z o‘qida yotuvchi nuqtalar uchun yonlama kuchlanishlar nolga teng va shu sababdan quyidagi tenglik adolatli:

$$\sigma_1 = \sigma_z; \quad \sigma_2 = \sigma_3 = \sigma_x = \sigma_y \quad (6)$$

Chunki kuchlanish intensivligi  $\sigma_i$  ning umumiy hajmli kuchlanish holatidagi ifodasi quyidagi bog‘liqlik orqali aniqlanadi:


$$\sigma_i = \frac{1}{\sqrt{2}} \sqrt{(\sigma_1 - \sigma_2)^2 + (\sigma_2 - \sigma_3)^2 + (\sigma_3 - \sigma_1)^2}, \quad (7)$$

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan yuklash holati uchun, qachonki  $\sigma_2 = \sigma_3$  bo‘lsa, kuchlanish intensivligi  $\sigma_i = |\sigma_1 - \sigma_2|$  ga teng bo‘ladi. Shuning uchun (6) va (7) ifodalarni hisobga olgan holda, o‘zgarishlardan so‘ng, nuqtaviy kuch ta’siridagi kuchlanish intensivligi quyidagicha bo‘ladi:

$$\sigma_i = \frac{P}{2\pi z^2} \left( 3 - \frac{1-2\mu}{2} \right). \quad (8)$$

Bu yerda P – birlik nuqtaviy kuch, ya’ni plastinka qalinligining birligiga to‘g‘ri keladigan yuklanish.

Mexanik xususiyatlari - ko‘ndalang deformatsiya koeffitsiyenti  $\mu=0,23\dots0,27$ ; elastiklik moduli  $E=(0,15\dots1,60)\cdot 10^5$  N/mm<sup>2</sup> bo‘lib, plastikligi past kulrang cho‘yan uchun normal kuchlanishning hisob-kitobi (5), (6) va (8) formulalar




6-rasm. Yarim cheksiz fazo chegarasiga qo‘yilgan  $P=1$  N birlik nuqtaviy kuch uchun asosiy kuchlanishlar  $\sigma_1, \sigma_2$  va kuchlanish intensivligi  $\sigma_i$  ning sirt qatlami chuqurligi z bo‘yicha bog‘liqligi.

bo'yicha bajarildi.

6-rasmda asosiy normal kuchlanish  $\sigma_1$  va  $\sigma_2$ , hisobiy ko'rsatkichlarining, shuningdek konsentrlangan kuch P ta'sirida yuza qatlami chuqurligi z bo'yicha  $\sigma_i$  kuchlanish intensivligining bog'liqligi ko'rsatilgan. Kuchlanish  $\sigma_1$ ,  $\sigma_2$  va  $\sigma_i$  ning yuza qatlami chuqurligi bo'yicha keskin pasayishining qonuniyati aniqlandi: mazkur kuchlanish  $z=0,02$  dan  $0,06$  mm gacha chuqurlikdan o'tganda 9 baravar kamayib ketadi va masalan  $\sigma_i$  uchun mos ravishda 1095 MPa va 122 MPa tashkil qiladi.

Zarba berishda energiya yo'qotishni hisoblash uchun Gersning elastik kontakt nazariyasidan foydalanish maqsadga muvofiq.



**7-rasm. Energiyaning yo'qotish ko'effitsiyenti  $\xi$  ning zarba vaqtida tezlik tiklanish ko'effitsiyenti k ga parabolik bog'liqligi ( $0 \leq k \leq 1$ )**

$W$  – mikrosharchaning kinetik energiyasi farqi;

$v_0, v_1$  – mikrosharchaning mos ravishda boshlang'ich va oxirgi (zarbadan keyingi) tezliklari.

Chunki zarba paytidagi tezlikni tiklash ko'effitsiyenti  $k = |v_0|/|v_1|$  formula bilan aniqlanadi, (10) formula quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\xi = (1 - k^2) \quad (10)$$

7-rasmda zarba paytidagi tezlikni tiklash ko'effitsiyenti k ga bog'liq holda energiya yo'qotish ko'effitsiyenti  $\xi$  ning parabolik bog'liqligi berilgan. k ko'rsatkichining ortishida  $\xi$  ko'effitsiyentining intensiv kamayishi belgilangan: k 0,2 dan 0,8 gacha (4 baravar) ortishida zarba berishda energiya yo'qotish ko'effitsiyenti 2,67 baravar kamayadi.

Zarbada tiklanish ko'effitsientining hisoboti amaliy foydalanish uchun qulay bog'liqlik asosida amalga oshirildi, chunki uning kinetik energiyasiga kiruvchi granular massasi  $\rho$  zichligi va V hajmi orqali ifodalangan. Formuladagi  $E_{np}$  – keltirilgan elastiklik moduli bo'lib, u quyidagi bog'liqlik orqali aniqlanadi:

$$k = 1,63 \sqrt{HB^{1,25} / (\rho^{0,25} v_0^{0,5} E_{np})} \quad (11)$$

Ishlov berilayotgan (mustahkamlanayotgan) material – kulrang cho'yan; elastiklik moduli  $E_2=(1,15-1,60) \cdot 10^5$  N/mm<sup>2</sup>,  $E_2=(1,15-1,60) \cdot 10^5$  deb qabul qilamiz; Puasson ko'effitsienti  $\mu_2=0,23-0,27$ ,  $\mu_2=0,25$  qabul qilamiz. Ferritli va ferrit-perlitli

cho'yanlarning (SCh15) qattiqligi HB143–229 ni tashkil etadi, HB229 deb qabul qilamiz.

Keltirilgan ma'lumotlarda  $E_{mp}=1,12 \cdot 10^5$  H/mm<sup>2</sup>, mikrosharchalarning uchish tezligi  $v_0=20$  m/s bu  $v_0=20-40$  m/s diapazonidan tanlangan bo'lib, zarba paytida tezlikni tiklash koeffitsienti  $k=0,224$  ni tashkil etdi, bu  $\xi=0,95$  energiya yo'qotish koeffitsientiga mos keladi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik differensial tenglamasining ma'lum fundamental yechimiga muvofiq, ma'lum termal-fizik xususiyatlarga ega bo'lgan qattiq jismning istalgan nuqtasidagi harorat  $\Theta$ , nuqtaviy bir lahzalik issiqlik manbai ta'sirida quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

1) Ushbu manba kiritgan issiqlik  $Q(D_j)$  miqdoridan; 2) manbadan berilgan nuqttagacha bo'lgan masofa  $R(m)$ ; 3) impuls momentidan kuzatuv momentigacha o'tgan vaqt  $t(s)$  va quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\theta(x, y, z, t) = \frac{Q}{\lambda \sqrt{\omega} (4\pi t)^{3/2}} \exp\left[-\frac{R^2}{4\omega t}\right], \quad (12)$$

bu yerda  $\lambda$  - issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Vt/(m<sup>0</sup>S);

$Q$  - zarra urilishida ajraladigan issiqlik, Dj.

$\omega = \lambda / (c\rho)$  - harorat o'tkazuvchanlik koeffitsiyenti, m<sup>2</sup>/s;

$c\rho$  - hajmiy issiqlik sig'imi, Dj/ (m<sup>3</sup>·0S);

$R = \sqrt{(x_u - x)^2 + (y_u - y)^2 + (z_u - z)^2}$  - issiqlik manbasidan ko'rilayotgan nuqttagacha koordinatalari  $x, y, z$  bilan masofa, m

$\exp\left[-\frac{R^2}{4\omega t}\right]$  - eksponensial funksiya.

Cho'yan detallarni po'latdan tayyorlangan mikrosharchalar bilan zarba berish orqali mustahkamlashda kontakt haroratini hisoblash algoritmi ishlab chiqildi, unga ko'ra, masalan, yuza qatlamining chuqurligi  $R=z=0,01$  mm bo'lgan nuqtasining harorati quyidagini tashkil qiladi:


$$\theta = \frac{Q_m}{\lambda \sqrt{\omega} (4\pi t)^{3/2}} \exp\left[-\frac{R^2}{4\omega t}\right] = \frac{28,26 \cdot 10^{-6}}{0,586 \sqrt{0,113 (4 \cdot 3,14 \cdot 0,0077 \cdot 10^{-4})^{3/2}}} \exp\left[-\frac{0,01^2}{4 \cdot 0,113 \cdot 10^{-2} \cdot 0,0077^{-4}}\right] =$$

$$= \frac{28,26 \cdot 10^{-6}}{0,00591 \cdot 10^{-6}} \cdot 0,0568 = 272 \text{ } ^\circ\text{C}.$$

Kulrang cho'yanni granulali zarba berish orqali ishlov berishda haroratning pastroq qiymatlari po'lat buyumlariga nisbatan yuqoriroq issiqlik o'tkazuvchanligi bilan bog'liq bo'lib, eng muhimi, plastik deformatsiya hisobiga ingichka qatlamlarning sovuq ishlash (naklyop) effekti pasaymaydi va maksimal mikroqattqlik zonasining sirt osti qatlamiga siljishiga olib kelmaydi.

Dissertatsiyaning **“Mikrosharchalar bilan dinamik mustahkamlashda panjaralarning sirt sifati bo'yicha nazariy-eksperimental tadqiqoti”** nomli uchinchi bobida kolosniklar tayyorlash uchun past plastik konstruksion material - kulrang cho'yaning deformatsiyalanishi va yemirilishi xususiyatlari o'rganildi, mikrosharchalar bilan ishlov berishda deformatsion qattiqdashirish chuqurligining detal materiali qattiqligi va normal ezish kuchi orasidagi o'zaro bog'liqlik belgilandi.

Cho‘yan kolosniklarning ishchi yuzasining qattiqligi va g‘adir-budurligi eksperimental aniqlashning uslubiyati va natijalari taqdim etildi.



**8-rasm. Cho‘yan siqilgandagi kuchlanish diagrammasi**

Kulrang cho‘yanning deformatsiyalanish xususiyatlari va cho‘zish va siqishdagi kuchlanish diagrammalarining tahlili bajarildi. Cho‘yan uchun Guk qonuni nisbiy deformatsiyalanish  $\varepsilon=3\%$  bo‘lganda yaqinroq kelishi aniqlandi va keyinchalik egri bog‘liqlik kuzatildi.

Pardozlash-qattiqlashtirish jarayonida naklep chuqurligi  $h_H$  yoki deformatsion qattiqlashtirish, plastik deformatsiyalarning tarqalish chuqurligi kabi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan S.G.Xeyfets formulasi bo‘yicha aniqlanadi.

$$h_n = \sqrt{P / (2\sigma_T)}, \text{ mm} \quad (13)$$

bu erda, P deformatsiyalanishning normal kuchi (ezish kuchi), N.

$\sigma_T$  – fizik ishlov berilayotgan materialning hosil kuchi, N/mm<sup>2</sup>.

Konstruksion po‘latlarning katta guruhi  $\pm 15\%$  uchun xatolikni inobatga olgan holda  $\sigma_T \approx HB/6$  qabul qilish mumkin va HB qattqlikni Brinellyu va Meyer (Meyer bo‘yicha dinamik qattqlik) bo‘yicha aniqlash mohiyatiga asoslangan holda naklep chuqurligi uchun quyidagi bog‘liqlik olindi.

$$h_n = 1,535 d \sqrt{\frac{HM}{HB}}, \text{ mm} \quad (14)$$

Bu yerda, d – chuqurcha (plastik iz) diametri, mm.

Mustahkamlash darajasiga qarab, HM/HB nisbati mo‘tadil mustahkamlash darajasida ma‘lum chegaralarda bo‘ladi. 10-12 zarbadan so‘ng deyarli to‘xtaydi va mazkur ko‘rsatkichlarga erishiladi  $d=(1,25...1,35)d_1$  ( $d_1$ – plastik izning birinchi zarbadan keyingi diametri), mikrosharchalar bilan qattiqlashtirilganda naklep chuqurligini esa yakuniy ko‘rinishga keltirish mumkin:

$$h_H = (2,34...3,10)d_1, \text{ mm} \quad (15)$$

(15) formulaga ko‘ra, nakalet chuqurligining hisoblangan qiymati  $v=20$  m/s tezlikda,  $D=0,3$  mm diametrli sharchalar bilan va cho‘yanning qattiqligi HB220 bo‘lganda, sirt deformatsiyasi darajasi  $\Psi=0,2205$  bo‘lgan holatda  $h_H=0,1548-0,2051$  mm ni tashkil etadi. Olingan naklyop chuqurligi qiymatlari eksperimental ma‘lumotlardan 9-14% farq qiladi, bu esa amaliy qo‘llash uchun ushbu bog‘liqlikning maqbulligini ko‘rsatadi.

Zarba vaqtida ezish kuchi P ni analitik baholash, shuningdek, qattiq, deformatsiyalanmaydigan sferik indentorning yumshoqroq metall to‘siq bilan to‘qnashuvi jarayonining fizik tomonini ko‘rib chiqish orqali amalga oshirilishi mumkin (2-rasm). Bu jarayon sferaning ishlov berilayotgan muhitdagi harakat tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$P = \pi p_0 r^2 \approx 2\pi p_0 R h = -m \frac{d^2 h}{dt^2}, \quad (16)$$

bu differensial tenglamaga keltiriladi:

$$\frac{d^2 h}{dt^2} + \frac{\pi D \sigma_{\tau}}{m} \cdot h = 0,$$

uning yechimi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$h = v_0 \sqrt{\frac{m}{\pi D \sigma_{\tau}}} \sin \left( \sqrt{\frac{\pi D \sigma_{\tau}}{m}} \cdot t \right), \text{ MM}$$

Bu yerda,  $r=d/2$  - plastik iz radiusi;

$m, R$  - sharning mos ravishda massa va radiusi;

$h$  - sharsimon indenterning chuqur kirishi;

$p_0$  - o‘zgarmas va ishlov beriladigan materialning hosil kuchi deb qabul qilinadigan bosim kuchi, ( $p_0=t$ ).

Shunday qilib, ishlov berilayotgan yuzaga sharning kirishining maksimal chuqurligiga to‘g‘ri keladigan ezish kuchi quyidagini tashkil qiladi.

$$P = \pi D^2 v_0 \sqrt{\frac{\sigma_{\tau} \rho}{6}}, H \quad (17)$$



**9-rasm. HRS-300E qattqlik o‘lovchi priborning o‘lchov-registratsiya blogi**



**10-rasm. “Yuklash-vaqt” diagrammasini avtomatik yozish bilan yuklash (o‘lchash) boshlanishini registratsiyasi**



**11-rasm. “Yuklash-vaqt” diagrammasini avtomatik yozish bilan yuklash (o‘lchash) tugashining registratsiyasi**

1-jadvalda jin va linterlar uchun cho‘yan kolosniklarning HB qattqligini aniqlash bo‘yicha eksperiment natijalari keltirilgan, Ko‘rsatkichlar uch o‘lchovning o‘rtachasi sifatida keltirilgan (10,11-rasmlar)

Rossiyada ishlab chiqarilgan qattqlashtirilmagan kolosniklarning ishchi zonadagi past ko‘rsatkichlarini kulrang cho‘yanning tarkibiy bir xil emasligi va metall asosga ega quymaga nisbatan qattqligi ancha past bo‘lgan grafit qo‘shimlarning betartib joylashganligi bilan izohlanadi.

1-jadval

Ekspluatatsiyadan keyin SCh15 cho‘yan kolosniklarning qattqligini Brinell bo‘yicha o‘lchash natijalari

№	Kolosniklar bo‘yicha ma’lumot	Jin uchun kolosniklar		Linter uchun kolosniklar	
		ishchi zonadan tashqari	ishchi zonada	ishchi zonadan tashqari	ishchi zonada
1	Qattqlashtirilmagan(Rossiya)	325,7	215,1	208,4	190,3
2	Qattqlashtirilgan(Rossiya)	322,8	216,3	206,8	198,5
3	Qattqlashtirilgan(Xitoy)	216,8	208,2	233,0	213,1

Cho‘yan kolosniklar g‘adir-budurligining ( $R_z$ ,  $R_a$ ) yuqori parametrlarini belgilash maqsadida, shuningdek mashinalarning ekspluatatsiya davrida ularni transformatsiyasida eksperimental tadqiqotlar bajarildi. Sirt qatlamning g‘adir-budurligi parametrlarini o‘lchash uchun his qiluvchi (kontaktlanuvchi) usulga asoslangan TIME3200 priboridan (12-rasm) foydalanildi. Mazkur usul sirt notekisligini o‘lchashning profil usulining asosiy varianti hisoblanadi.



**12-rasm. Kolosniklar yuzasining notekisligini o‘lchash pribori ( $R_a$  va  $R_z$  parametrlari)**

2-jadvalda jin va linterlar kolosniklarining uzoq foydalanilgan so‘nggi ishchi va undan tashqarida yuza qatlamining notekisligi o‘lchash natijalari keltirilgan. Ko‘rsatkichlar uch o‘lchamning o‘rtachasi qilib olingan. Eksperiment ma‘lumotlarining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, jin kolosniklarini mikrosharchalar zarbali qattiq/ashtirishdan keyin  $R_a$

